IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
MAXSUS SON . VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

YUSUF SARYOMIY ASARI MANBALARI, “DEVONI MAVLAVIYI YUSUF SARYOMIY” ASARI TOSHBOSMA NUSXALARI

Muallif	**Maxsumov Maqsud Maxmut o‘g‘li**
O’qish yoki ish joyi	**“Xoja Buxoriy” nomidagi o‘rta maxsus islom bilim yurti o‘qituvchisi**
Qabul qilindi	**21.09.2023**
Nashr qilindi	**21.09.2023**

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yusuf Saryomiy qalamiga mansub devonning tekstologik tahlili berilgan, devon tarkibidagi g‘azallarning to‘g‘ri o‘qilishi va undagi grafik xususiyatlari yoritilgan. Matnda tarixi, badiiyatiga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar

Yusuf Saryomiy, devon, Saryomiy g‘azallari, “Devoni Mavlaviyi Yusuf Saryomiy”, toshbosma, tekstologik tahlil, matn xususiyati.

Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, Prezidentimiz eng ko'p diqqatni qaratayotgan muammolardan biri ma'naviyat bo'lib turibdi. Boy madaniy-adabiy merosimizni o'rganish, anglash va unga vorislik qilish esa manaviyatining o'zak masalalaridandir. Bu haqida birinchi prezidentimiz Islom Karimov shunday ta’kidlagandi: “Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko’p asrlar mobaynida yaratib kelingan g’oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo’lib qoldi”[1].

O’zbek mumtoz adabiyotining eng keyingi davri hisoblangan XIX asrning 2-yarmi XX asr boshlarida yashagan ijodkorlarning merosini o’rganish borasida talay ishlar qilindi. Ayniqsa, bu davr adabiyotining xarakterli xususiyatlaridan bo’lgan marifatchilikni tadqiq etishda bir qator yutuqlar qo’lga kiritildi. Shuningdek, bu davr adabiyoti ijtimoiy-fuqarolik motivlari nuqtayi nazaridan ham keng tekshirildi va tekshirilmoqda[2].

Bugungi kunda keng kitobxonlar ommasiga hayoti va ijodi to’liq o’rganilmagan yoki kam o’rganilgan, hali badiiy salohiyati to’liq ochib berilmagan ijodkorlarni tanishtirish asosiy vazifa bo’lib turibdi. Shular qatorida biz devonini tadqiq etayotgan Yusuf Saryomiy ijodi ham bor.

90-yillarga kelib Yusuf Saryomiy hayoti va ijodini o’rganish o’ziga xos yangicha tus oldi, ancha rivoj topdi. Bu o’rinda professor B.Qosimovning ma’lum xizmatlarini qayd etmoq lozim[3]. Uning shoir hayoti va ijodi bilan bog’liq ayrim masalalarni o’rtaga qo’yishi va adib biografiyasiga aniqliklar kiritishga urinishi, Saryomiy asarlarini ommalashtirish sohasidagi xizmatlari Yusuf Saryomiy hayoti va ijodiy merosini o’rganishda, targ’ib etishda qo’lga kiritilgan yutuqlardan bo’ldi.

[1] Каримов И.А.
[2] Тожибоева М.А. Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди. – Т., 2004. – Б. 5-6.
[3] Қосимов Б. Муҳаббат аҳлининг гулшани. – Т., 1992.

Shoirning 150 yillik yubileyi munosabati bilan o'tkazilgan tadbirga tayyorgarlik davrida Sayramda ham shoir ijodini o'rganish va sayramliklar orasida keng yoyish borasida ancha ishlar qilindi. Ayniqsa, M.Mirxoldorovning "Yusuf Saryomiy" kitobchasining bosilib chiqqanligi bu boradagi ko'zga ko'rinarli ishlardan boldi[4]. Mirahmad Mirxoldorov risolasi 27 sahifali bo'lib, shoirning hayot yo'li haqida qisqacha ma'lumot beriladi va shoirning 18 ta she'ri e'lon qilindi. So'z boshida shoirning hayot yo'li, ijodining umumiy xususiyatlari haqida fikr bildirilgan. She'rlaridan ham yaxshigina bir guldasta tanlab ilova qilingan. To'g'ri, risolaning kamchiliklari juda ko'p. Avvalo, maqola ham ilmiy ham ifoda jihatidan juda nochor yozilgan, ilova qilingan she'rlar matn jihatidan ancha g'aliz. Shularga qaramasdan, mazkur risola shoir hayoti va ijodini o'rganishdagi dastlabki urinish deb qaralmog'i kerak. U Yusuf Saryomiy haqidagi birinchi kitobdir. Shu faktning o'ziyoq unga ayricha ahamiyat yuklaydi[5]. Biz esa shoirning yozma merosi manbalari bilan tanishamiz.

Yusuf Saryomiy devoni toshbosma nusxalari Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari markazida saqlanmoqda. Ular quyidagilar: №117 inventar raqam bilan saqlanuvchi دیوان مولوی یوسف سریامیasari. Devonga o'zbek tilidagi g'azal, muxammas, tarjiband, qasida va forsiy g'azallar kiritilgan. Asar Toshkentda "Tipografiya, A.O. Porseva" tipografiyasida 1332-1913 yili nashr etilgan. 159 betdan iborat. O'lchami: 26x16 sm. Noshiri: Mulla To'lagon To'la. Kotibi: Mulla Otab ibn Rasul Mahmud Shoshiy.
Huddi shu asarning Sharq qo'lyozmalari markazida yana № 118, № 119, № 120, № 6028, № 9072, № 11354 inventar raqam bilan saqlanuvchi nusxalari mavjud[6].
Markazning H.Sulaymonov fondida esa № 3641, № 3768, № 3931, № 4172 inventar raqam bilan saqlanuvchi toshbosma nusxalari mavjud.
Bundan tashqari Andijon shahar Adabiyot va sanat muzeyida ham № 1720, № 2185, № 2720, № 728, № 799 raqamli Yusuf Saryomiy devoni toshbosma nusxalari mavjud. Devonning muqovasi qalin, yashil rangda, titul varog'ining atroflari naqshinkor qilib bezatilgan, undagi yozuvlar zar yugurtirilgan siyohda yozilgan.
Toshbosma titul varog'ining boshi quyidagi so'zlar bilan boshlanadi:
وَ اِنَّ مِن ْ الشِّعْرِ الحِكْمَةُ وَ اِنَّ مِنْ البَيَانْ السُخراً[7].
"*Va inna minas-šeri hikmatun va inna minal bayani sehrun*", yani "Albatta, she'rda hikmat bor va albatta so'zda sehr bor",- degan hadisi sharif keltirilgan. Undan so'ng noshirning quyidagi so'zlari keladi:
لله الحمد بو ایام فرخنده فرجام ده محب الشعرا و الفضلا میرزا توله کان ملقب به تولا اهتمام و غیرت لاری ایلان معدن فصاحت و بلاغت مثمی بدیوان یسوف مولوی سریامی تاشکند بلده سینده شورصوف مطبعه سینده طبع اولیندی تاکه سبس دعا و یاد آوری احبا بولوب هر کورغوچی شوق اهلی و سیر قیلغوچی زوق خیلی لاری بهره آلغایلار. کر قبول اولسه زهی عزو شرف[8].
"Lillah il-hamd bu ayyami farxandai jarjāmda muhibbuš šuarā val fuzalā Mirzā To'lagān mulaqqab ba Tavallā ehtimām va ğayratlarï ilän madanï fasāhatu va balāğatï musamma ba devānu Mavlaviy

[4] Қаранг. Мирхолдоров М. Юсуф Сарёмий. – Чимкент-Сайрам, 1990.
[5] Тожибоева М.А. Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди. – Т., 2004. – Б. 13.
[6] Бу ҳақда қаранг. Ўзбек тилидаги тошбосма китоблар каталоги. 1-жилд. – Т., 2014. – Б. 42-43.
[7] Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари маркази фондида №.119 сақланувчи "Девони Мавлувий Юсуф Сарёмий". – Б. 1.
[8] Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари маркази фондида №.119 сақланувчи "Девони Мавлувий Юсуф Сарёмий". – Б. 1.

Yusuf Saryāmiy Tāškand baldasïnda Posuf mabaasïnda tab olundï, tāki sababï duā va yād āvarï ahibbā bolub, har korğučï šavq ahlï va sayr qïlğučï zavq xaylïlarï bahra alğaylar. Gar qabul olsa zihi izz-u šaraf".

Bu ma'lumotlardan devonning shoir-u fuzalo Tavallo G'ayrati bilan tuzilgani hamda Toshkentdagi O.A. Porsev litografiyasida bosilib chiqib دیوان مولوی یوسف سریامی "Devoni Mavlaviyi Yusuf Saryomiy" deb nomlanishi ma'lum bo'ladi. Devon sahifalari bir xil. Umumiy hajmi 160 bet. 158-betida ushbu devon hijriy 1332-yilda (milodiy 1912-y.) tuzilgani haqida Mulla To'lagan Hojamiyor o'g'li Tavalloning kitobati bor:

"Edim bu sāhibi devāna šāgird,
Etärdim xizmatïnï az dil-u jan.
Atamnïŋ namï Xojamyār erdi.
Banïn atïm edi Mirzā Tolagān.
Tavallā deb taxallus laqab birlän,
Janāb ustāzïm maŋa qoyğan.
Ešitgäč rihlatin ul ustāzïm,
Aquzdïm közlärimdin yaš čandān.
Ajal andïn asarlar qaldurupsan,
Özin qïldï qara tufrağqa pinhān.
Ačïldï royï birlän bu Tavallā,
Dedi tarixïnï: «bir ğunča devān".

"Bir g'uncha devon" kalimasini abjad hisobi bilan qimmati qo'yilganda, devonning hijriy 1332-yilda, milodiy 1912-1913-yillarda kitobat etilganligi kelib chiqadi va ushbu majmuaning tasnif etilgan yili yanada aniqlashadi[9].

Mirzo To'lagan shoir devonning so'nggi sahifalarida shunday yozib qoldiradi: Bundan tashqari devon haqida e'tiborli va e'zozli shoirlardan Karimbek Kamiy, Vasliy Samarqandiylar tarix bitganlar va o'z tarixlarida devonni chop qildirgan noshiri "juvonmard ixlosmand Tavallo" va "xati xo'b" bo'lgan kotibi Mulla Otabning sayi harakatlarini olqishlaydilar. Yuqorida Karimbek Kamiyning devon haqida tarix bitib, uning muallifini baland pardalarda olqishlaganini ko'rib o'tgan edik. Unga hamohang satrlarni boshqa ijodkorlarda ham uchratamiz.

Chunonchi, Vasliy afandi Samarqandiy o'z tarixida Saryomiy ijodidan bahramand va devon tuzilganidan xursandligini shunday ifoda etadi:

Yusufki, šeri dāšt xo'b dar zindagi čun darba suft,
Asrāri nahzi išqrā dar mağzi ašāraš nahuft.
Asrāri dilrā mahramï u az šāirāni Sayram u,
Binamu az dunyā ramu bāhuru ğilmān gašt joft.
Tā u ba jannat xo'b šud, devāni xobaš šud,
Vasliy nadida ro'yi dāği, ašār Yusuf xo'b guft (S.155[10])

Mazmuni: "Yusufni tirikligida yozgan xo'b yaxshi she'rlari bor ediki, ishq sirlarini haqiqatini o'z

[9] Тожибоева М.А. Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди. – Т., 2004. – Б. 36.

[10] Магистрлик диссертациясида фойдаланилган Сарёмий ғазаллари қуйидаги манбадан олинди: Шарқ қўлёзмалари маркази фондида №.119 инвентар рақам билан сақланувчи "Д е в о н и Мавлавийи Юсуф Сарёмий" асаридир. Кейинги ўринларда С ҳарфи билан берилади ва ундан сўнг девон саҳифаси қўйилади.

she’rlarida bergandi. Sayramlik bu shoir dil sirlariga mahramdur. Dunyoni yig’ishtirib hur-u gilmon bilan ketdi. Yusufni she’rlari xo’b edi to jannatga borguncha devonini chop etdi. Vasliy yuzida dog’ ko’rmadi”.

Mazkur tarixda Vasliy Samarqandiy Yusufni tirikligida yozgan “xo’b” yaxshi sherlarini madh etar ekan, “dil sirlariga mahram” bo’lgan sayramlik bu shoirning devoni chop etilganidan uning ko’ngli to’ladi.

Yoki devonning oxirgi sahifalarida Sidqiy Hondaliqiyning ikki tilda bitilgan tarixini o’qisak, shoir «dilga yoqimli bo’lgan bu yangi devon» chop qilinganidan shod bo’lib, o’z tarixini “Nayushaydin mujda ey doston” (yani, bu xushxabarni eshitinglar, ey do’stlar) deb boshlaydi. Baytlar davomida Sidqiy “jahonning xaridor bo’lishiga” loyiq bu kitobni “har kimki lutfi xushlik bilan o’qisa, undan shakar-u sutning lazzatini topadi” deya ko’z-ko’z qiladi. Tarix davomida “ko’p aqcha sarf etub bu himmatli ishni ro’yobga chiqargani qandayam yaxshi bo’ldi”,- deb Tavalloni madh etadi.

Tarixda devonga tegishli shunday turkiy tilda bitilgan misralar bor:

Qïlïb zinda Yusufnï oğlan atïn,
Jahān ahliğa äylädi šuhra gir.
Duā birlä Sïdqïy qïlïb sözni bas,
Tavallānï madhïda čekğïl nafir.
Tavallā yïl yašatïb, xudāyā anïŋ,
Jahān ahliğa namïnï qïl šahir.
Munïŋ kātïbïb söräsälar-ki, atïn,
Erür Mulla Otab xattï Benazir.

Shoir misralaridan devon kotibi Mulla Otabning xati, yozuvi juda chiroyli bo’lganligi ayon bo’ladi, zero husnixatning go’zalligi ham bir san’at.

Bulardan tashqari shoir Xislatning devon haqidagi bitgan misralarida ham devonning tuzilgan yiliga ishora bor:

Dedi devān Yusuf sālï tabin,
Xiraddïn tā savāl etgändä Xislat.
Miyānï bağ-u gul yüz ilä tarix:
Erür bu “gulšanï ahlï muhabbat”.

Yuqorida keltirilgan tarixlar devonning tuzilgan yili, kotibi, noshiri haqida ma’lumot olishimizga imkon beradi.

“Devoni Mavlaviy Yusuf Saryomiy” deb nomlangan ushbu devonda she’rlar an’anaviy devon tuzish qoidalariga asoslangan holda joylashtirilgan bo’lib, g’azal janri asosiy o’rinni egallaydi va to’plamda alifboning deyarli hamma harflari bilan tugallanadigan g’azallar bor. G’azallar jami 130 ta bo’lib, shundan 115 tasi o’zbek tilidadir. Saryomiy devonida g’azaldan so’ng ko’proq o’rin olgan she’riy shakl muxammasdir. Shoir majmuasidagi 25 muxammasning 6 tasi Fuzuliy g’azallariga, 3 tasi Navoiy g’azallariga bog’langan. Saryomiy o’z ustozlari g’azallariga taxmis bog’lar ekan, ular ilgari surgan g’oyaviy mazmunni rivojlantiradi. Shoir taxmislari o’z asosi bo’lgan g’azallar bilan g’oyaviy-badiiy jihatdan birikib ketgan va tugal asarlarga aylangan taxmislardir.

Saryomiyning mustaqil yozgan muxammaslarida shaxsiy taassurotlari lirik tarzda ifodalanadi. Shoirning “Manga bir nozanin olma berdi vasl bog’indin” misrasi bilan boshlanadigan muxammasida insonning eng murakkab ruhiy holatlari, uning ichki hissiyotlari, shodlik va azoblari haqida gap ketadi. U muxammasda o’z mashuqasi bilan bo’lgan visol ayyomini va uning

tafsilotlarini chizadi:

Maŋa bir nāzanïn alma berdi vasl bağïndïn,
Yana sarmast qïldï may tutïb gulgun ayağïndïn,
Tāmāša äylädim, ul māhiroynï har qayağïndïn,
Latāfatda körinür erdi suv ičsä tamağïndïn (73-b.)

G'azalga nisbatan hajman katta va murakkab bo'lgan muxammaslarda ham Saryomiy o'zligini to'la namoyish eta bildi. Yusuf Saryomiy tarjiband janrida ham qalam tebratdi. Shoir devonida 7 ta tarjiband (84 misra) hamda 9 ta marsiya tarjiband (108 misra) bor bo'lib, ulardagi bandlar va baytlarning soni bir xil — 12 misradan iborat. Devondagi birinchi tarjiband shunday boshlanadi:

منی غم منچه هم تکلیف سحرا جنون ایتمه
فراق هجر افغانیمنی کون کون دین فوزون ایتمه
فلک دیک دغی حسرت جامه ایشیم سر نیکون ایتمه
هزینک کونککوم نی ویران ایلامه حالیم زبون ایتمه

Meni, ğam, munča ham taklifi sahrāyï junun etmä,
Firāqï hajr, afğānïmnï kün-kündin fuzun etmä,
Falakdek, dağï hasrat, jāmï ayšïm sarnigun etmä,
Hazing köŋlümni vayrān äylämä, hālïm zabun etmä.

Tarjiband shu tarzda davom etadi. Misralarda shoir ruhiy holatining ifoda etilishi asarning tasir kuchini oshiradi.

Saryomiyning adabiy merosi to'g'risida so'z borganida, uning tarixlari haqida ham alohida to'xtash zarurati bor. Shoirning tarix shaklida yozgan asarlaridan devonda 5 ta namuna uchratdik. Devonning 92-betida "Tarixi ayvoni Akmalboy dar shahri Saryom" deb nomlanuvchi 14 misradan iborat tarixi keltirilgan. Ushbu tarix hijriy 1324-yilda (milodiy 1906) yozilgan bo'lib, unda sayramlik Akmalboy degan bir muhandis o'tganligi va uning chiroyli uylar qurganligi haqida gap boradi. Saryomiy ijodi o'zbek adabiyoti tarixidagi marsiya janrini o'rganish nuqtayi nazaridan ham nihoyatda xarakterlidir. Devonga shoirning 5 ta marsiyasi kiritilgan. Ular "Marsiya dar manqabat Hazrat Sulton Xoja Ahmad Yassaviy nurullohu marqadahu", "Marsiyai tarix vafoti janobi Tojixon Eshon afandi", "Dar manqabati hazrati Shayxovand Tahur nurullohu marqadahu" (forsiy tilda), "Bosqinchilar qo'lida shahid bo'lgan toshkentlik Sayyid G'ulom Xoja nurullohu marqadahu" kabilardan iborat.

Saryomiy marsiyalaridagi afsus-nadomat, hasratlar sof insoniy kechinmalarga asoslangan. Chunonchi, toshkentlik Sayyid Gulom xojaning fojiali vafoti munosabati bilan yozilgan marsiyasi:

ای خزان یلکیدا الماق دین بهار الغان شاهید
قتره قتره قان دین یوز لاله زار الغان شاهید

Ey xazān ilkidä olmaqdïn bahār olğan šahid,
Qatra-qatra qanïdïn yüz lālazār oğlan šahid.

deb boshlanib, misralar davomida falakdan shikoyat qilish kayfiyati seziladi. Saryomiy marsiyalarining originalligi shundaki, yangi so'z, yangicha ma'no beradigan hayotiy, original obrazlar ixcham va mazmunli iboralar bilan ish ko'radi. Shoir o'z marsiyalarida ayriliq tuyg'ularini "Ey nayi xomim navo soz et, navolar yig'lasun" kabi ajoyib ta'sirli iboralar bilan ifodalaydi. Shuningdek, shoir marsiyalarni yozishdan maqsad qilib vafot etgan kishini xotirda saqlab qolish bilan birga davrning illatlarini fosh qilib, o'z noroziligini keng xalq ommasiga yetkazishni oladi. Bu bilan marsiyaning badiiy qimmati yanada ortadi.

Ko'rinadiki, Saryomiy devonida an'anaviy g'azal va ruboiylar, muxammas va fardlar o'sha

janrlarning rang-barangligini taminlabgina qolmasdan, ayrim tarixiy voqea va sanalarni tiklashda, ularning sodir bo'lgan davrini aniqlashda va boshqa xil nuqtayi nazaridan ham kitobxon tasavvurini to'ldiradi va uni Saryomiy yashagan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi adabiy muhitning o'ziga xos xususiyatlarini anglashga yordam beradi. Shoir devoni ustidagi izlanishlarimizdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi: Yusuf Saryomiy tiriklik chog'ida devon tuzmagan. Uning vafotidan keyin shogirdi Tavallo tomonidan shoirning tarqoq holdagi she'rlari "Devon" shakliga keltirilgan. Kotibi Mulla Otab Shoshiydir. Devonning tuzilishiga bag'ishlab Kamiy, Xislat, Vasliy kabi shoirlar tarixiy she'rlar bitganlar.

Devondan shoirning 12 adabiy janrda yozilgan she'rlari joy olgan. Devonning asosiy qismini g'azal, muxammas va fard janrlarida yozilgan asarlar tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda Tadqiqotda bayon qilingan fikr va mulohazalarni shunday xulosalash mumkin:

Boy manaviyatga ega bo'lgan qadim yurtimizda mustaqillikni mustahkamlash borasida qizg'in kurash ketayotgan bir paytda XX asrning boshida yashagan va zamon talablariga javob berishga harakat qilgan ko'plab istedodlar qatorida e'tiborli shoirimiz Yusuf Saryomiyning hayoti va ijodini o'rganishda katta ehtiyoj bor. Yusuf Saryomiy o'zidan salmoqli adabiy meros qoldirgan zamondoshlaridan tomonidan e'tirof etilgan Turkiston adabiy-madaniy hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan shoirlardandir.Shoirning devoni an'anaviy lirikamizni turk adabiyotshunosligida «devon adabiyoti» deb nomlangan hodisani bir tomondan davom ettirsa, ikkinchi tomondan, davr ohanglari bilan boyitadi. Yangi mazmun, yangi ruh olib kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tojiboeva M.A. Yusuf Saryomiy hayoti va ijodi. — T., 2004.
2. Qosimov B. Muhabbat ahlining gulshani. — T., 1992.
3. Qarang. Mirxoldorov M. Yusuf Saryomiy. — Chimkent-Sayram, 1990.
4. Tojiboeva M.A. Yusuf Saryomiy hayoti va ijodi. — T., 2004.
5. Bu haqda qarang. O'zbek tilidagi toshbosma kitoblar katalogi. 1-jild. — T., 2014.
6. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Sharq qo'lyozmalari markazi fondida №119 saqlanuvchi "Devoni Mavluviy Yusuf Saryomiy".
7. Tojiboeva M.A. Yusuf Saryomiy hayoti va ijodi. — T., 2004.
8. Magistrlik dissertatsiyasida foydalanilgan Saryomiy g'azallari quyidagi manbadan olindi: Sharq qo'lyozmalari markazi fondida №119 inventar raqam bilan saqlanuvchi "Devoni Mavlaviyi Yusuf Saryomiy" asaridir.